

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri haqida

Internet manbalaridan olindi



Toshkent markazidagi Zarafshon ko‘chasida muhtasham bino – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatri qad rostlab turibdi.

Ilgarilari teatr hududida chorshanba va shanba kunlari savdo-sotiq tashkil etilgan. Bu yerga minglab shahar aholisi ro‘zg‘or-ga oziq-ovqat sotib olish uchun kelib turishgan. Keyinchalik, aynan shu yerda teatr binosini qurishga qaror qilingan.

1933-yilda Toshkentda opera teatri uchun eng yaxshi loyiha tanlovi e‘lon qilingan. 1934-yilda tanlov natijalariga ko‘ra, akademik Aleksey Viktorovich Shusevning loyihasi eng muvaffaqiyatli deb topilgan.

Teatr qurilishi 1940-yilda boshlangan. Ammo Ikkinchi jahon urushi tufayli 1942-yilda uning qurilishi to‘xtatiladi, 1943-yilda esa yana davom ettiriladi. Shu tariqa yetti yil davomida me‘mor Shusev qurilishga rahbarlik qiladi. U qadimiy Sharq me‘morchiligini juda yaxshi bilgani bois binoning milliy xususiyatlarini yanada yorqinroq aks ettirish yo‘llarini izlaydi va bunga erishadi ham. Uning loyihasi asosida teatr atrofidagi maydon ko‘kalamzor bog‘, manzarali daraxtlar va paxta ko‘sa-gi shaklidagi favvorali hovuz bilan bezatiladi.

Bugungi kunda ushbu teatr O‘zbekistonning eng buyuk madaniy boyliklaridan biridir. Uning sahnasida mamlakatimiz va xorijning taniqli artistlari, xonandalari hamda ijodiy jamoalari o‘z san‘at asarlarini namoyish etib kelmoqdalar.

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrining truppasi* dunyoning turli mamlakatlariga uyush-tirilgan gastrollarda* muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda.



Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrining qurilishida turli kasb egalari: kulollar, yog‘och o‘ymakorlari, g‘isht teruvchilar va ganchkorlar* ishtirok etishgan. Teatrni pardo-
lash ishlarida ganch* o‘ymakorligi usulidan foydalanilgan. Sharq me‘morchiligining yuksak namunasi bo‘lgan ushbu shoh asarni mashhur naqqosh-rassom va ganchkor Usta Shirin Murodov yaratgan.



truppa – muayyan teatr yoki sirkda faoliyat yurituvchi aktyorlar, xonandalar, musiqachilar jamoasi
gastrol – teatr artistlarining boshqa shahardagi konserti
ganch – suvoqchilik va haykaltaroshlikda ishlatiladigan gips va loy aralashmasidan iborat material
ganchkor – ganch o‘ymakori, ustasi



1. Avvallari teatr o‘rni qanday ko‘rinishda bo‘lgan va aholi u yerga nima uchun kelgan?
2. Teatr qurilishi tanlovida kimning loyihasi g‘olib deb topildi va qurilish nechanchi yili boshlandi?
3. Me‘mor Shusev teatr atrofidagi maydonni bezatishda qanday elementlardan foydalangan?
4. Urush sababli to‘xtab qolgan teatr qurilishi qachon qayta boshlandi va qancha davom etdi?



Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab berishga tayyorlaning.

